

JISMONIY TARBIYA DARSALARIDA YANGI PEDAGOGIK TEHNOLOGILARNI  
QO'LLANILISHINI MOHIYATI

Asqarov Fahritdin Alisherovich

NamDU Jismoniy madaniyat kafedrasи mudiri

**Annaotatsiya:** Maqolqada Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko`rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta`lim amaliyoti va nazariyasi ilmdan mustahkam o`rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug`atlari (tezaurus) dagi o`rni hali noma`lumligicha bo`lmay qolmoqda.

**Kalit so`zlar:** pedagogik texnologiya Pedagogikaga oid adabiyotlar

**ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ  
НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ**

Аскаров Фахритдин Алишерович

Заведующий кафедрой физической культуры НамГУ

**Аннотация:** Анализ литературы по педагогике в пословице показывает, что в современный период понятие педагогической технологии заняло прочное место в практике и теории воспитания, но в совершенных словарях (тезаурусах) педагогики еще неизвестно, оно остается.

**Ключевые слова.** педагогические технологии Педагогическая литература

**THE IMPORTANCE OF USING NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN  
PHYSICAL EDUCATION LESSONS**

Askarov Fakhritdin Alisherovich

Head of the Department of Physical Culture, NamSU

**Abstract:** An analysis of the literature on pedagogy in the proverb shows that in the modern period the concept of pedagogical technology has taken a strong place in the practice and theory of education, but in perfect dictionaries (thesauri) of pedagogy it is still unknown, it remains.

**Keywords:** pedagogical technologies Pedagogical literature

**KIRISH**

Mamlakatimiz qiyofasi qanday o`zgarib borayotgani, qanday yutuq va natijalarga erishganimiz, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo`lida qanday sur`atlar bilan rivojlanib borayotganimizni baholash ehtiyoji tug'ilgan kunda bajarilmoqda .

Qisqacha aytganda, biz o`z oldimizga qo`ygan uzoq muddatlari strategik maqsadlar, ya`ni zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o`sishini ta`minlash, hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiatida munosib o`rin egallash borasidagi sa'y-harakatlarimizga bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona baho berishimiz tabiiydir.

Tadqiqot maqsadi: Jismonyi tarbiya darslarida yangi pedagogik tehnologiyalarni tadbiq etish.

Natijalar.Istiqlol yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan avvalo ertangi kun egalari bo`lgan yosh avlod istiqboli, ta`lim-tarbiyasiga mas`ul bo`lgan ustoz va murabbiylar kasbiga bo`lgan munosabat o`zgardi. Jamiatda bu sharafla va o`z navbatida o`ta mas`uliyatli kasb egalariga nisbatan yuksak hurmat va e`tibor davlat siyosati darajasiga ko`tarilib, doimiy e`tibor ostidadir.

Mamlakatimiz ta`lim tizimida uzoqni ko`zlab olib borilayotgan islohotlar bugun nafaqat jamoatchiligimiz, balki butun jahonda ham katta e`tibor bilan e`tirof etilmoqda. Bugun yangicha qiyofa kasb etgan, zamon talablari darajasida ta`mirlangan, eng so`nggi rusumdagagi o`quv jihozlari bilan jihozlangan maktablar orzu emas ayni haqiqatdir.

O`tgan yillar mamlakatimiz hayotida haqiqatan ham ulkan tarixiy ahamiyatga ega bo`lgan eng muhim ijtimoiy dasturlar - Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta`limini rivojlantirish Davlat umummillyi dasturining ijrosi amalda nihoyasiga etkazildi. 9 yillik umumta`lim maktab bosqichini va 3 yillik o`rta maxsus, kasb-hunar ta`lim bosqichini o`z ichiga olgan uzlusiz yaxlit ta`lim tizimi yaratildi va 12 yillik ta`lim tizimiga o`tish yakunlanmoqda.

O`rni kelganda aytish kerakki, yangi 2010 yilda davlat byudjetining 50 foizdan ko`prog'i mamlakatimizda faqat ta`lim-tarbiya va sog'liqni saqlash sohalarini rivojlantirishga yo`naltiriladi.

Barkamol avlod haqida so`z borganda, o`tgan yillar davomida katta kuch va mablag' hisobidan ta`lim sohasida barpo etilgan moddiy-texnik bazadan oqilona va samarali foydalanish masalasi qanchalik muhim ekani barchamizga ayon bo`lishi kerak. Ta`lim sohasida zamonaviy axborot va komp'yuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o`zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kollejlar, oliy o`quv yurtlariga, balki har qaysi oila, hayotiga keng kirib borishi uchun zamin tug'dirishning ahamiyatini chuqur anglab olishimiz lozim.

Mas`uliyatli va murakkab bu vazifa, davlatning boshqa tadbirlari qatorida, Respublika Oliy Majlisining 9-sesiyasida qabul qilingan "Ta`lim to`g'risida"gi Qonun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni (1997 yil 29 avgust) ro`yobga chiqarish orqali bajariladi. Bu dasturni tarkibiy qismi sifatida ta`limning yangi modeli yaratiladi. Bundan ko`zlangan maqsad ta`lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o`tmishdan kolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to`la xalos etish, rivojlangan demokratik

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-6 ISSUE-11 (30- November)**

davlatlar darajasida, yuksak ma`naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlapshing milliy tizimini yaratish edi.

Prezident tomonidan ilmiy asoslab berilgan ta`lim-tarbiya modelini amaliyatga tatbiq etish o`quv jarayonini texnologiyalash bilan uzviy bog'liqdir.

Ushbu dastur mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxasisni tarbiyalab voyaga etkazish jarayonining mohiyati to`laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o`zida ta`lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko`tarish, shu bilan birga jahon ta`limi darajasiga etkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim. CHunonchi, mazkur jarayonning birinchi bosqichi ( 1997-2001 yillar)da "...o`quv-uslubiy majmualarning hamda ta`lim jarayoni didaktik va axborot ta`minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish", ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar)da "...ta`lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o`quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o`quv adabiyotlarni va ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan ta`minlash" hamda uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) da "...ta`lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalarini yanada mustahkamlash o`quv-tarbiya jarayonini yangi o`quv uslubiy majmular, ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan to`liq ta`minlash" kabi dolzarb vazifalar ijobiy hal etilmog'i lozim.

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko`rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta`lim amaliyoti va nazariyasi ilmdan mustahkam o`rin egalladi, lekin uni pedagogikaning mukammal lug'atlari (tezaurus)dagi o`rni hali noma'lumligicha bo`lmay qolmoqda.

Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo`lgan: u texnik vositalar haqidagi ta`limot deb hamda o`qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan. Hozir pedagogik texnologiyalarning bir qancha ta`riflari mavjud.

N.F.Talizina har bir pedagog real pedagogik jarayonni tashkil etishdan oldin o`quv jarayoni haqida texnologik darajada bilimlar tizimini bilib olgan bo`lishi shart deb hisoblaydi. U fan va amaliyot oralig'ida tamoyillarni olg'a suruvchi, metodlar ishlab chiquvchi, ularni izchil qo'llash kabi masalalar bilan shug'ullanuvchi alohida fan bo`lishi kerak, deb hisoblaydi, ularsiz pedagogik jarayon asoslanmay qoladi.

Ayrim mualliflar o`qitish texnologiyalariga fan va san`at oralig'idagi fan deb qaraydilar, boshqalari uni loyihalash bilan bog'laydilar.

SHunday qilib, bir yondashuvda o`qitish texnologiyalari o`kitishning barcha vositalarini qamrab olgan qandaydir jihozlash sifatida ham belgilanadi. Unda texnologiya o`quv jarayonini texniklashtirishni taqozo qiladi.

Boshqa yondashuvda texnologiyaga ta`lim amaliyotini yangi yoki zamonaviylashtirilgan bilimlar bilan ta`minlashning usuli sifatida qarashga imkoniyat beradi. Bunda texnologiyaga ta`limning ilmiy tamoyillari va amaliyotini tatbiq etish sifatida qaraladi.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH**  
**VOLUME-6 ISSUE-11 (30- November)**

Texnologiya tushunchasi 60-yillardagi Amerika va G'arbiy Evropada ta'limni isloh qilinishi bilan bog'liq ravishda kirib keldi. B.Blui, J. Koroll, P.YA.Gal'perin, V.I.Davidov, N.A.Menchinskaya, Z.I.Kalmikova, L.I. Zankov texnologiyalari mashhur. O'qitishni tashkil qilishning texnologik yondashuvlari V.P.Bespal'ko, N.F.Talizina, L.M.Fridman, YU.N.Kulyutkina, G.S.Suxobskoy, T.V.Kudryavtsev, A.M. Matyushkin, M.I.Maxmutov kabi aksariyat psixolog va didaktikachilarga taalluqlidir.

Pedagogik texnologiyada hali ko'p aniqlanmagan masalalar bor, bu muammoni tadqiq etish o'qitish texnologiyasining tushunchasi va metodologik mohiyatini aniqlash bilan bog'liq.

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potentsial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi.

Pedagogik texnologiya mohiyatini yoritish uchun pedagog-didaktikachilar tomonidan berilgan ta'riflarga to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topamiz.

«Pedagogik texnologiya – psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonning tashkiliy-metodik omilini ham bildiradi» (B.Lixachev).

«Pedagogik texnologiya – pedagogik maqsadlarga erishishda foydalilanladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishning tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi» (M.V.Klarin). «Pedagogik texnologiya – talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir». (V.M.Manaxov).

«Pedagogik texnologiya - avvaldan berilgan tavsifga ko'ra asoslangan didaktik jarayonlarning joylashtirilishi bo'yicha ishlab chiqilgan maqbul tizim va tamoyillar mohiyatini belgilovchi ilmiy tadqiqot va didaktikaning muayyan yo'nalishi» (I.P.Podkasistiy).

«Pedagogik texnologiya - ta'lim jarayoniga nisbatan o'ziga xos yondoshuv; ijtimoiy-mushandislik tafakkurining pedagogik ifodasi, texnokratik ongning pedagogikaga ko'chirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartidir» (B.L.Farberman).

«Pedagogik texnologiya - didaktik maqsad,talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishish, ta'lim jarayonini avvaldan loyihalashtirish» (U.N.Nishonaliev).

«Pedagogik texnologiya - o'qituvchining o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga muayyan sharoit va izchillikda ta'sir ko'rsatish hamda mazkur faoliyatning mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan sifatlarni shakllantirish jarayoni» (N.Saidahmedov).

«Pedagogik texnologiya – bu ta'lim shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida

# JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH

## VOLUME-6 ISSUE-11 (30- November)

va ularning bиргаликдаги гаракатлари вositасида юратиш, татбиқ етish ва belgilashning izchil metodidir» (YUNESKO).

Bu ta`riflar tahlilidan pedagogik texnologiya natijani qo`lga kiritish uchun ta`lim doirasida zarur bo`lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish degan xulosaga kelish mumkin.

Ta`lim texnologiyasi deganda ta`limning belgilangan maqsadi va talabaning bilim darajasiga ko`ra o`quv faoliyatini boshqarishning nazariy loyihasi va pedagogik tizimning amalda bo`lishini ta`minlovchi zarur vositalar tizimi tushuniladi.

Ta`lim texnologiyali muammolari, mualliflik maktablari va o`qituvchi-novatorlarning ulkan tajribalari doimiy ravishda umumlashtirishni va sistemalashtirishni talab etadi. Sistemanı tashkil etuvchi poydevor asosi sifatida pedagogika uchun yangi bo`lgan tushunchadan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi - pedagogik jarayonlarni taxlil qilish va loyihalashtirishga yangicha “texnologik” yondoshish va “texnologiya”. Pedagogik texnologiya tushunchasi pedagogik leksikaga mustahkam kirib keldi. Ammo uni tushunish va ishlatalishda turlicha o`qishlar katta farqi bor. Bugungi kunga kelib pedagogik texnologiya tushunchasini 300 dan ortiq ifodalanishi mavjud.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi uchta aspektlar bilan taqdim etilishi mumkin:

1) Ilmiy pedagogik texnologiya - o`qitishning maqsadi, mazmuni va metodlarini o`rganuvchi va ishlab chiquvchi, pedagogik jarayonlarni loyihalashtiruvchi pedagogik fanning bir qismidir.

2) Protsessual - ta`rifiy: jarayonni tasvirlash o`qitishning ko`zda tutilgan natijalariga erishish uchun vositalar va maqsad, metodlar to`plami.

3) Protsessual - amaliy: texnologik jarayonni amalga oshirilishi, hamma shax-siy, instrumental va metodologik pedagogik vositalarning ishga soli-nishi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya o`qitishning eng samarali yo`llarini izlovchi fan sifatida ham, o`qitishda qo`laniladigan usullar, printsipler va boshqaruvar sistemasi sifatida ham, o`qitish haqiqiy jarayoni sifatida ham ishtiroy etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizzodjaeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat -T., 2006.
2. B. Farberman. Ilg`or pedagogik texnologiyalar - T., 2001.
3. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». Ma`rifat. - Toshkent: 1998. 1 aprel.
4. O`zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to`g’risida”gi Qonuni (2000 26 may), “Xalq so`zi”. -Toshkent: 2000. -21 iyun.
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg’armasini tuzish to`g’risida»gi Farmoni. (2002 y. 24 oktyabr’). Sport. -Toshkent, 2002. № 80. 30 oktyabr’.

**JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH  
VOLUME-6 ISSUE-11 (30- November)**

---

6.Sport barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim va samarali omilidir. Prezident I.Karimovning O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi homiylik kengashining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi. -Toshkent: 2013. 16 mart.